

KORRUPSIYA BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNI OLDINI OLISHNING NAZARIY VA AMALIY-HUQUQIY MASALALARI

Tulaganova Gulchehra Zaxitovna

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoyat protsyessi huquqi kafedrası professori, yuridik fanlar doktori

Annotatsiya. Ushbu maqolada korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarning sodir etilish sabablari va ushbu jinoyatlarni profilaktika qilish chora-tadbirlari tahlil etilgan. Shuningdek, aholi o'rtasida o'tkazilgan so'rovlarga asosan korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarining oldini olish uchun aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, maslahat kurslarini tashkil etib, profilaktika ishlarini doimiy ravishda olib borish zarurligi asoslab berilgan. O'tkazilgan tadqiqot natijasida bir qancha nazariy va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: korrupsiya, pora, jinoyat, huquqbuzarlik, profilaktika, huquqiy ong, huquqiy madaniyat.

Abstract: This article analyzes the causes of corruption-related crimes and measures to prevent these crimes. Also, based on surveys conducted among the population, it is justified to increase the legal awareness and culture of the population in order to prevent corruption-related crimes, to organize regular consultation courses for them, and to carry out preventive work on a regular basis. As a result of the research, a number of theoretical and practical proposals were developed.

Keywords: corruption, bribery, crime, offense, prevention, legal awareness, legal culture.

Bugun mamlakatimiz demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish yo'lidan sobitqadamlik bilan bormoqda. Barcha sohalaridagi kabi jinoyatchilik va uning oldini olish mexanizmini isloh qilish masalalari ham doimo Prezidentimizning e'tibori markazida bo'lib kelmoqda. Tezkor zamon talablaridan kelib chiqib, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev yangicha fikrlaydigan, mas'uliyatli, tashabbuskor, ilg'or boshqaruv usullarini puxta o'zlashtirgan, vatanparvar, halol kadrlarni tanlash va tayyorlash bo'yicha samarali tizim yaratilishini kechiktirib bo'lmas vazifa etib belgiladi [1].

Korrupsiya – bu jamiyatga juda katta putur yetkazadigan dahshatli vabo. U demokratiya va huquq ustuvorligi asoslarini yemiradi, inson huquqlarining buzilishiga olib keladi, iqtisodiyotning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi, hayot sifatini salbiylashtiradi va inson xavfsizligini tahdid ostiga soluvchi uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa salbiy hodisalarning ildiz otib, ommalashib ketishiga sharoit yaratib beradi.

Korrupsiyaning ildizlari davlat xizmatini tashkil etishdagi nuqsonlarga va davlat xizmatchilarining o'ziga xos psixologiyasiga borib

taqaladi. Bu korrupsiyaga qarshi, avvalo, ma'muriy-huquqiy va tashkiliy-boshqaruv chora-tadbirlari ko'rish zarurligi taqozo etadi. Aynan korrupsiya jamiyatga o'lchab bo'lmas darajada katta putur yetkazadi, chunki rivojlanish uchun mo'ljallangan mablag'larni o'ziga tortadi, aholiga asosiy xizmatlarni ko'rsatish imkonidan mahrum qiladi, tengsizlik va adolatsizlikning ildiz otishiga sabab bo'ladi hamda xorijiy investitsiyalar va yordamning kirib kelishiga to'sqinlik qiladi.

Korrupsiyaga qarshi kurash muammosi zamonamizning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib, O'zbekiston Respublikasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishidir. Korrupsiyaga qarshi kurashishda qonunchilikni takomillashtirish, bu sohadagi ta'limni rivojlantirish, fuqarolarning korrupsiyaga qarshi harakatlari uchun samarali tizimni yaratishdan iborat kompleks ta'sirini anglatadi va korrupsiyaning barcha ko'rinishlariga qarshi kurashish, korrupsiyani rad etishning barcha ko'rinishlari yaratilishi – bu hokimiyat hamda jamiyat uchun muhim va dolzarb vazifa hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda ta'lim tizimini yaratish va takomillashtirishdan ko'zlangan asosiy maqsad – davlat xizmati sohalaridagi

kadrlarni korrupsiyaga qarshi kurash va ogohlik borasida o'qitish, qayta tayyorlash, ularga zarur bilim va ko'nikmalarni berish, fuqarolik jamiyatini korrupsiyaga qarshi kurash borasida huquqiy, moddiy, axborot va boshqa resurslar bilan ta'minlashdan iborat.

Har qanday ijtimoiy-salbiy hodisaning yoki jinoyatchilikning, shu jumladan korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashda mazkur illatni vujudga keltiruvchi sabablar va unga imkon beruvchi shart-sharoitlarni o'rganish, tahlil qilish, aniqlash muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan ushbu ijtimoiy-salbiy hodisani vujudga keltiruvchi sabablar va unga imkon beruvchi shart-sharoitlarni o'rganish va aniqlash orqaligina korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib borish imkoniyati vujudga keladi.

Korrupsiya va uni vujudga keltiruvchi muammolar o'rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud [2; 56 b.]. Bir tomondan, bu muammolar korrupsiyani kuchaytiradi, ularni yechish esa korrupsiya darajasini pasaytirishga ko'maklashishi mumkin, boshqa tomondan, korrupsiya keng tarqalgani o'tish davri muammolarini keskinlashtiradi, ularni yechishga xalaqit beradi. Bundan xulosa shuki, birinchidan, korrupsiyani faqat uni vujudga keltiruvchi muammolar va shart-sharoitlarni yechish yo'li bilan kamaytirish va cheklash mumkin; ikkinchidan, bu muammolarni yechishga korrupsiyaga qarshi barcha yo'nalishlarda qat'iy va murosasiz kurash olib borish ko'maklashadi.

Korrupsiyaga yo'l ochadigan omillar sirasiga hokimiyat organlari tizimining murakkabligi, taomillarining ko'pligi, davlat hokimiyati organlari apparatining faoliyati ustidan tashqi va ichki nazoratning yo'qligi kabi holatlarni kiritish mumkin. Tashkiliy tushunmovchiliklarni fuqarolarning korrupsion xulq-atvorini rag'batlantirishdan farqlash ba'zan juda qiyin kechadi. Taqiqlar, ruxsat berish taomillari sonining haddan tashqari ko'pligi, davlat hokimiyati organlari faoliyatiga jalb qilingan fuqarolarning manfaatlarini himoya qilish mexanizmi va huquqiy asoslarining yo'qligi ham korrupsiyaga yo'l ochadi [3].

Zotan, tarixiy tajriba va hozirgi amaliyot, shu jumladan ba'zi yangi mustaqil davlatlar amaliyoti korrupsiya va jinoyatchilik xavfsizlikka qanchalik tahdid solishini aniq tasavvur etish imkonini beradi.

Bizningcha, kriminologiya asosiy qoidalariga tayanib, korrupsiyani vujudga

keltiruvchi muammolarni shartli ravishda umumiy va xususiyga ajratish mumkin.

Korrupsiyaning xususiy muammolari ildizlari bilan sho'ro davriga borib taqaladigan muammolarning davomi hisoblanadi. Ularning ayrimlari o'tish davri sharoitlari ta'sirida keskinlashgan. O'sha davrdagi sud tizimi samaradorligi darajasining pastligi, aholi huquqiy ongining rivojlanmagani, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ularning vakillari faqat "davlat manfaatlari" va "jamoat mulki"ni muhofaza qilishga odatlangani shular jumlasidandir.

Jinoyatchilik, shuningdek korrupsiya muammosiga doir maxsus kriminologik adabiyotlar tahlili korrupsiyani o'zining tabiiy mahsuli sifatida belgilovchi sabablar va shart-sharoitlar (omillar)ning ayrim guruhlarini qayd etish imkonini beradi. Ijtimoiy hayot mazmuni yoki sohalariga ko'ra bunday omillar qatoriga huquqiy, tashkiliy-boshqaruv, tarbiyaviy, mafkuraviy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sabablar hamda shart-sharoitlar kiradi [4; 180 b.].

Korrupsiyani belgilovchi huquqiy omillar qatoriga aksariyat mutaxassislar ayrim faoliyat sohaları huquqiy jihatdan lozim darajada tartibga solinmaganini va amaldagi qonun hujjatlaridagi mavjud kamchiliklarni kiritadilar. Ular orasida quyidagi kamchiliklar ayniqsa ko'p qayd etiladi:

davlat hokimiyati va boshqaruv organlari mansabdor shaxslarining xizmat vakolatlari lozim darajada tartibga solinmagani;

korrupsiyaning muayyan ko'rinishlari uchun javobgarlik to'g'risidagi amaldagi qonun hujjatlari lozim darajada samarali emasligi;

muayyan siyosat subyektlari – davlat hokimiyati vakillari va bu lavozimlarga nomzodlarga jinoiy ta'qibdan immunitet huquqi berilganligi. Zero, bu javobgarlikdan har qanday tarzda ozod qilish mavjud xulq-atvor normalari buzilishiga sabab bo'ladi, korrupsiya jinoyatchiligiga qarshi kurashning maqsadi – har bir jinoyat uchun va har qanday shaxsga, uning siyosiy maqomidan qat'i nazar, jinoyat qonuni qo'llanilishining muqarrarligiga ziddir.

Korrupsiyani belgilovchi tashkiliy-boshqaruv omillari guruhi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

vakant oliy davlat lavozimlarini band etishga tanlovlar soni ko'p emasligi, professional xizmatchilar va siyosiy belgiga ko'ra tayinlanadigan amaldorlar tizimining mavjudligi;

davlat xizmatining beqarorligi;

davlat hokimiyati organlarida tegishli

lavozimni band etish uchun saylov yoki tanlov o'tkazish jarayonida moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi maxsus mustaqil xizmatlar mavjud emasligi;

korruptsiyaga qarshi kurashda davlat organlari faoliyatining samarali emasligi;

davlat hokimiyati organlarining vakillari va bu lavozimlarga nomzodlarning faoliyati va siyosiy munosabatlar sohasi ustidan davlat va jamiyat tomonidan ijtimoiy nazorat shakllari mavjud emasligi.

Korruptsiyani belgilovchi mafkuraviy va tarbiyaviy omillar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

korruptsiyaga qarshi qisqa muddatli kompaniyalarning o'tkazilishi, zero ular aksariyat hollarda siyosiy maqsadlarni ko'zlab o'tkaziladi va bu maqsadlarga erishish usullaridan biri hisoblanadi, chunki o'z oldiga qo'yilgan siyosiy maqsadlarga (tegishli lavozimni egallash yoki uni o'zida saqlab qolish) erishgan shaxslar shundan keyin ko'pincha mazkur ijtimoiy hodisaga qarshi kurashning samaradorligini oshirish xususida bergan va'dalarini unutadilar;

ommaviy axborot vositalari aholini korruptsiyaga qarshi ruhda tarbiyalash borasida lozim darajada ish olib bormayotgani.

Korruptsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: davlat mulkini xususiylashtirish hamma joyda korruptsiyaning muhim manbai bo'lib xizmat qiladi; byudjet mablag'larini taqsimlash sohasi – korruptsionerlar uchun yana bir qulay zamin; eksklyuziv huquqlar berish (imtiyozlar, shu jumladan eksport va import, soliqlar bo'yicha imtiyozlar berish, litsenziyalash va hokazo) ham korruptsiyaga keng yo'l ochadi; tijorat banklari bilan hamkorligi; huquqni muhofaza qiluvchi organlar va iqtisodiy jinoyatchilikning birikishi hamda korruptsiyaga qarshi kurashga jiddiy to'squinlik qiluvchi muhitni yaratishi.

Quyi darajadagi korruptsiya uchun shart-sharoitlar. Quyi darajadagi korruptsiya undan pora oluvchigina emas, balki pora beruvchi ham foyda ko'rish bilan ajralib turadi. Pora muayyan maishiy muammolarni hal qilishga ko'maklashadi, shuningdek u ayrim mayda qonunbuzarliklar, ko'rsatmalarni buzish imkoniyati uchun to'lanadigan haq bo'lib xizmat qiladi.

Quyi darajadagi korruptsiya oddiy fuqaro davlatga murojaat etish zarurati bilan to'qnash

keluvchi yoki aksincha, davlat fuqaroni tashvishga solish lozim deb hisoblovchi barcha sohalarga kirib boradi.

Korruptsiyaning ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlariga to'xtaladigan bo'lsak, jamiyatdagi kriminallashuv jarayonlari kishilar ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ularning huquqiy ongi buzilishiga sabab bo'ladi. U bir-birini istisno etuvchi ikki jihat – huquqqa ijobiy va salbiy munosabatlarning chatishuvi bilan tavsiflanadi. Ayni bir subyektlar ongida bunday tendensiyalarning mavjudligi aholining turli guruhlari qadriyatlarga munosabatda to'g'ri mo'ljallarni yo'qotganidan dalolat beradi. Huquqiy nigilizm – huquqqa salbiy munosabat, uning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning samarali vositasi bo'lib xizmat qilish imkoniyatiga ishonchsizlik kuchayib boradi.

Jamiyatda mavjud bo'lgan ma'naviy-psixologik muhit hokimiyat organlaridagi korruptsiya darajasiga, hech shubhasiz, jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ayrim mansabdor fuqarolar o'zlarini korruptsion qaror qabul qilish yoki qabul qilmaslik o'rtasida yo'l tanlashga majbur etadigan holatlarga ertami, kechmi albatta duch keladilar. Bunday holatlarga fuqarolar bilan bevosita aloqada ish olib boruvchi quyi va o'rta bo'g'in amaldorlari ayniqsa ko'p duch keladilar (turli litsenziyalar, ruxsatnomalar, ma'lumotnomalar berishda va hokazo).

Bunday holatlarning paydo bo'lishi yuqorida aytib o'tilgan korruptsiyani vujudga keltiruvchi muammolar va shart-sharoitlarga ham, ijtimoiy-psixologik omillarga ham bog'liqdir. Ularning tabiatini tushunish korruptsiyaga qarshi kurashish uchun nima qilish kerakligini aniqlashni osonlashtiradi.

Individual darajada korruptsionerlarga xos bo'lgan quyidagi belgilarni qayd etish mumkin: gapga ustalik va tili achchiqlik; zimdan ish ko'rishga moyillik; pulga o'chlik va davlat manfaatlarini (va o'zga manfaatlarini) pulga sotishga tayyorlik; o'z halovatini saqlashga intilish (bunga erishish uchun yuqori turuvchi mansabdor shaxslarni pora evaziga og'dirish); ertani o'ylamasdan yashash; yuqori martabali shaxslar bilan do'stona aloqalarga egalik va bunday aloqalarni o'rnatishga, ularning homiy-ligidan foydalanishga harakat qilish [4; 182-187 b].

Korruptsiya domiga ilingan shaxslar orasida xizmatni o'tash bilan bog'liq zarar uchun o'ziga xos "tovon" olish motivi ayniqsa keng tarqalgan.

Umuman olganda, korrupsiyaga xos bo'lgan belgilar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: subyektlar jamiyatda yuksak martaba va mavqega ega ekanligi; maqsadlarga erishishning puxta o'ylangan intellektual usullari va vositalari; jamiyatga yetkaziladigan ulkan moddiy va ma'naviy zarar; o'ta yashirinlik va o'zaro keli-shuvga asoslanganlik.

Axloqiy immunitetning yo'qolishiga asosan quyidagi omillar turtki beradi: yuqorida zikr etilgan beqarorlik hissi; xodimning malakasi va ishning mas'uliyat darajasiga mos kelmaydigan oz maosh (Jahon banki tomonidan o'tkazilgan tadqiqot korrupsiyaning asosiy sababi amaldorlar maoshining ozligi ekanligini ko'rsatdi); xizmat pillapoyalari bo'ylab ko'tarilishda adolatsizlik; boshliqlarning dag'alligi yoki nokompetentligi; korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlari mavjud emasligi yoki ularning nomukammalligi; "yirik" korrupsionerlarning jazolanmasligi.

Bularning barchasiga qarshi davlat xizmatlari tizimini tegishli tarzda o'zgartirish va korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlarini qabul qilish yo'li bilan kurashish mumkin.

Mutaxassislar o'tish davrlarida korrupsion qarorlar ba'zan amaldor tomonidan yangi tizimga qarshi o'ziga xos "diversiya" – qo'poruvchilik sifatida qaralishini qayd etadilar. Bunda oddiy poraxo'r o'zini "jinoiy tuzum"ga qarshi kurashchi sifatida tasavvur qiladi [4; 190-191 b].

Mansabdor shaxs korrupsion qaror qabul qilganidan keyingina emas, balki "chegaraviy" xususiyatga ega bo'lgan harakatlardan astasekin jinoiy harakatlarga o'tish natijasida ham korrupsiyachiga aylanishi mumkin. Boshqaruv-

ning, qarorlar qabul qilishning izchil texnologiyalari qat'iy yo'lga qo'yilmagani, vakolatlar doirasi va sohalari aniq emasligi, shuningdek davlat xizmati xodimining Kasb-odobi kodeksi yo'qligi shaxslarni korrupsiya domiga ilinishini ayniqsa osonlashtiradi.

O'tish davri an'analar va madaniy andazalarning chatishuvi, kapitalning ayrim shakllari o'zga shakllarga deyarli moneliksiz o'tishi bilan tavsiflanadi. Korrupsiyaga yo'l ochadigan omillardan biri – bu hokimiyat organlari tizimining murakkabligi, buyruqbozlik taomillarining ko'pligi, davlat hokimiyati organlari apparatining faoliyati ustidan tashqi va ichki nazoratning yo'qligidir. Tashkiliy tushunmovchiliklarni fuqarolarning korrupsion xulq-atvorini rag'batlantirishdan farqlash ba'zan juda qiyin kechadi. Taqiqlar, ruxsat berish taomillari sonining haddan tashqari ko'pligi, davlat hokimiyati organlari faoliyatiga jalb qilingan fuqarolarning manfaatlarini himoya qilish mexanizmi va huquqiy asoslarining to'liq emasligi ham korrupsiyaga yo'l ochadi [5; 18 b].

Shunday qilib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin: birinchisi, korrupsiyani faqat uni vujudga keltiruvchi muammolar va shart-sharoitlarni yechish yo'li bilan kamaytirish va cheklash mumkin; ikkinchi, bu muammolarni yechishga korrupsiyaga qarshi barcha yo'nalishlarda qat'iy kurash olib borish ko'mak-lashadi.

Korrupsiyani vujudga keltiruvchi sabab va shart-sharoitlarni lozim darajada o'rganish yo'li bilangina uni kamaytirish va cheklash bo'yicha muayyan chora-tadbirlarni belgilash va ishlab chiqish mumkin.

Foydalanilgan manbalar

1. Xalq so'zi. 2020-yil 30-dekabr. 3-b.
2. Криминология: Учебник / Под ред. Е.О.Алауханова. – Алматы: Жеті жарғы, 2005. – С. 56.
3. Abdurasulova Q.R. Korrupsiyaga qarshi kurash: bu borada chet el qonunlarida nimalar belgilangan // Hayot va qonun. – №3. – 2003. (90). – B. 17.4.Алауханов Е.О., Турсынбаев Д.Е. Борьба с коррупцией в государственных органах Республики Казахстан: Учебное пособие / Под ред. Е.О.Алауханова. – Алматы: КазАТК, 2008. – С. 180.
5. Отчет Всемирного банка о мировом развитии / Под общ. ред. Д.Тушунова. Пер. с англ. Н. Сухова. – М.: Прайм-Тасс, 1997. – С. 18.

